

ABDUG‘AFUR RASULOV IJODI VA TANQIDCHILIK ME‘ROSI

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi

IV bosqich talabasi

Sharifjonova Ruxsora

Annotatsiya : Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotshunosligining yirik namoyandasi, filologiya fanlari doktori, professor Abdug‘afur Rasulovning adabiy-tanqidiy faoliyati atroflicha tahlil etiladi. Tadqiqotda olimning ilmiy-estetik qarashlari shakllanish bosqichlari va uning o‘zbek tanqidchiligi rivojida o‘rni ilmiy asoslab beriladi. Muallif Abdug‘afur Rasulovning adabiy jarayonga yondashuvida o‘ziga xos uslubni, xususan, badiiy asarni tahlil qilishdagi xolislik va talabchanlik tamoyillarini yoritib beradi. Uning ijodi o‘zbek adabiy tanqidchiligida yangi ilmiy yondashuvlar, konseptual fikrlar va metodologik asoslarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur ish olimning adabiyotshunoslik maktabi, shogirdlar yetishtirishdagi o‘rni hamda zamonaviy adabiy jarayonda tutgan ahamiyatini ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘z : Abdug‘afur Rasulov, o‘zbek adabiyotshunosligi, adabiy tanqid, munaqqid mahorati, ilmiy-estetik qarash, tanqidchilik uslubi, metodologik yondashuv, adabiy jarayon, badiiy tahlil, xolislik tamoyili, adabiyotshunoslik maktabi, filologik meros, zamonaviy tanqidchilik.

Abstract: This article provides a scholarly inquiry into the literary-critical praxis of Abdugafur Rasulov, a distinguished figure in Uzbek philology, Doctor of Philological Sciences, and Professor. The study systematically delineates the evolutionary trajectory of the scholar’s scientific-aesthetic paradigms and substantiates his pivotal role in the advancement of Uzbek literary criticism. The author elucidates Rasulov’s idiosyncratic methodological framework, specifically emphasizing the principles of objectivity and analytical rigor in the interpretation

of literary texts. His intellectual contributions have profoundly catalyzed the emergence of innovative conceptual frameworks and methodological foundations within the field. Furthermore, this research examines Rasulov's legacy in establishing a distinctive school of literary studies, his impact on academic mentorship, and his enduring relevance within the contemporary literary discourse.

Keywords: *Abdugafur Rasulov, Uzbek literary studies, literary criticism, critical methodology, aesthetic paradigms, interpretive style, methodological discourse, literary process, textual analysis, principle of objectivity, academic school of thought, philological heritage, contemporary criticism.*

Kirish.

O'zbek adabiyotshunosligi tarixida adabiy jarayonni estetik tamoyillar va badiiy mahorat mezonlari asosida tadqiq etgan, tanqidchilikning nazariy va amaliy yo'nalishlarini yangi bosqichga ko'targan zahmatkash olimlar qatorida filologiya fanlari doktori, professor Abdug'afur Rasulov alohida o'rin tutadi. Uning ilmiy merosi o'zbek adabiy tanqidchiligida shunchaki asarlar tahlili emas, balki adabiy-estetik tafakkurni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida shakllantirgani bilan qadrlanadi. A.Rasulovning "Tanqid, talqin, qiymat" hamda "Iste'dod va e'tiqod" kabi tadqiqotlari o'zbek adabiy-ilmiy maktabining metodologik asoslarini mustahkamlashda muhim omil bo'ldi.¹

Olimning adabiy tanqidga yondashuvi, eng avvalo, ilmiylik, xolislik, badiiy mantiq va badiiyatga sodiqlik tamoyillariga tayanadi. Uning tadqiqotlarida har bir adabiy hodisa yoki ijodkor shaxsiga nafaqat matn doirasida, balki muallifning ruhiy olami va davr ijtimoiy-madaniy konteksti bilan bog'liq holda baho beriladi. Ayniqsa, munaqqidning O'tkir Hoshimov ijodiga bag'ishlangan "Ardoqli adib" asari adabiy portret janrining yuksak namunasi bo'lib, unda ijodkor shaxsiyati va badiiy mahorati o'rtasidagi dialektik aloqa teran ochib berilgan. Abdug'afur Rasulov yaratgan ilmiy maktab o'zbek tanqidchiligida "munaqqid mas'uliyati" va "tahlil

¹ Rasulov A. Tanqid, talqin, qiymat. – Toshkent: Fan, 2006.

madaniyati" tushunchalarini yangi mazmun bilan boyitdi. Mazkur maqolada olimning adabiy-ilmiy faoliyati, tanqidchilik uslubining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy adabiy jarayonni baholashdagi konseptual qarashlari hamda uning shogirdlar tayyorlashdagi samarali faoliyati tahlil markaziga olinadi.

Asosiy qism .

Abdug'afur Rasulov 1937-yil 1-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1970-yilda dotsent ilmiy unvonini olgan. 1970-1971 yillar ToshDU talabalar va aspirantlar kasaba uyushmasi raisi bo'lgan. 1979-yil Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan. 1996-1998 yillar O'zMUning O'zbek filologiyasi fakulteti dekani. 2002-yil "Hozirgi o'zbek tanqidchiligida talqin va tahlil muammosi" mavzusida ilmiy ishni yoqlab, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.

Abdug'afur Rasulov o'zining butun ilmiy faoliyatini adabiy tanqidchilik taraqqiyotiga bag'ishlagan zahmatkash olim sifatida shakllandi. Uning 1985-yilda e'lon qilingan "Tanqidchilik ufqlari" to'plamidan boshlab, "Ilmi g'aribani ko'msab" (1998) nomli risolasigacha bo'lgan tadqiqotlarida milliy tanqidchilikni yuzaki yondashuvlardan xoli etib, uni fundamental ilmiy asoslarga yo'naltirishga bo'lgan intilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Olim Sharq adabiyotshunoslik an'analardagi talqin san'atiga tayanib, zamonaviy tanqidchilikda konseptual yangilanishlar zarurligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Ushbu ilmiy mulohazalar va jahon adabiyotshunosligining ilg'or metodologik tamoyillari uyg'unligi natijasida olimning "Hozirgi o'zbek tanqidchiligida tahlil va talqin muammosi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi maydonga keldi. Mazkur fundamental tadqiqot Abdug'afur Rasulovning yirik tanqid nazariyotchisi sifatidagi maqomini mutaxassislar o'rtasida qat'iy mustahkamladi. ²Olimning ko'p yillik izlanishlari mahsuli sifatida 2006-yilda nashr etilgan "Tanqid, talqin, baholash" kitobi esa uning estetik qarashlarini yaxlit tizimga soldi. Olim o'zining yuzlab o'tkir tahliliy maqolalari, taqrizlari va o'nlab fundamental kitoblari bilan o'zbek tanqidchilari orasida alohida nufuzli o'rin egallaydi. Uning ko'p yillik

² Rasulov A. Iste'dod va e'tiqod. – Toshkent: Sharq, 2000.

samarali izlanishlari mahsuli bo'lgan „Yangi zamon – yangi qahramon“, „O‘zbek prozasi kamoli“, „Olim va tarjimon“ (O. Sharafiddinov bilan hammualliflikda), „Ilmi g‘aribani qo‘msab...“, „Iste’dod va e’tiqod“, „Ardoqli adib“, „Sharafli Sharafiddinovlar“ hamda „Betakror o‘zlik“ kabi asarlari adabiy jarayonning eng muhim tugunlarini yechishga xizmat qilib kelmoqda. Mazkur tadqiqotlar nafaqat muayyan davr adabiyotini baholashi, balki badiiy tahlilning yuksak namunasi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir.

Abdug‘afur Rasulov o‘zbek adabiy tanqidchiligida sinchkov munaqqid sifatida e’tirof etiladi. Sinchkovlik, ya’ni har bir detalga, badiiy unsurlarga yuksak e’tibor bilan qarash uning tabiiy va tug‘ma xususiyatlaridan biridir. Adabiy hodisalarni teran anglash, ularning tub mohiyatiga yetish, muntazam ravishda adabiy jarayonning qaynoq nuqtalarida bo‘lish – olim ijodiy shaxsiyatining yetakchi jihatlaridan hisoblanadi.

Ma’lumki, munaqqid o‘z qalamini dastlab taqriz janrida charxlaydi. A. Rasulov ham taqriz janrida nihoyatda faol ijod qilib, yosh iste’dodlarning ilk kitoblariga o‘zining xolis munosabatini bildirish orqali ularni katta adabiyot maydoniga yo‘lladi. Olim dastlabki qadamlaridan tortib, yetti o‘n yillik dovonni oshgunga qadar tanqidchilikning ushbu ixcham, ammo mas’uliyatli janrida tinimsiz mehnat qildi va yuzlab go‘zal tahliliy namunalarni yaratdi.

Taqrizning shakli va maqsadi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, munaqqid undagi asosiy murod – asarni chuqur anglash, unga adolatli baho berish va tahlil natijalarini kitobxonlar ommasiga mahorat bilan yetkazish ekanini teran tushunadi. Har bir badiiy matnga yondashishda u ana shu azaliy va yuksak talabni mezon qilib oladi. Olim asarni avvalo diqqat bilan o‘qish, uqish va badiiy idrok etishni o‘ziga xos ilmiy-ijodiy jarayon deb biladi. Ushbu murakkab jarayonda u o‘zini ham oddiy kitobxon, ham zukko mutaxassis sifatida namoyon etadi .

Munaqqidning „Tanqidchilik ufqlari“ to‘plami XX asrning 70-yillaridagi munaqqidlar faoliyati va tanqidchilik nazariyasini falsafa hamda estetika bilan uyg‘unlikda tadqiq etgani bilan ajralib turadi. Olim adabiy tanqidning mustaqil xususiyatlarini ilmiy asoslab, uning adabiyotshunoslik bilan aloqadorligini yoritib

bergan.³

Olimning „Ilmi g‘aribani qo‘msab...“ risolasi o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilmagan muammolarni, xususan, mumtoz adabiyotshunoslikdagi tanqidiy tafakkur va talqin nazokatlarini tadqiq etishga qaratilgan. Muallif „ilmi g‘ariba“ni kitobxonni hayratga solish, badiiy san‘atni chuqur his qilish ilmi sifatida talqin etadi.

A. Rasulov adabiy-badiiy tanqidning bosh vazifasini baholashda deb biladi, biroq baholash madhiyabozlikka aylanmasligi lozimligini uqtiradi. Uning fikricha, asarga baho berishda nafaqat matn, balki yozuvchi shaxsiyati, uning ijodiy yo‘li va adabiy jarayon yaxlitligi inobatga olinishi shart. Bu yondashuv o‘zbek adabiyotshunosligining metodologik asoslarini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik yillarida A. Rasulov Abdulla Qahhor ijodini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratdi. „Badiiylik – bezavol yangilik“ kitobidagi „Abdulla Qahhor va yoshlar“ tadqiqotida adib asarlaridagi yoshlar obrazi va ustoz-shogirdlik an‘analari xotiralar asosida yoritilgan.⁴

Olimning „Betakror o‘zlik“ kitobida adib haqidagi yangicha qarashlar ilgari surilgan. Muallif Abdulla Qahhorni „so‘z zargari“ deb atab, u yaratgan xarakterlarni „ruhimizdagi saralagich vositasida“ guruhlarga ajratadi. „Sarob“ romanini „saralar sanog‘idagi asar“ deb baholar ekan, undagi estetik roviy va yangi avlod kitobxonni o‘rtasidagi kontakt-munosabatlarni o‘ziga xos tarzda tahlil etadi. V. Belinskiy an‘analariga hamohang ravishda, Munaqqid ijodida ham ma‘lum bir g‘oyani izchil rivojlantiruvchi turkum maqolalar yaratish tamoyili istiqloq yillarida yetakchi o‘rin egalladi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abdug‘afur Rasulov zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan ulkan

³ Rasulov A. Ardoqli adib. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990

⁴ Rasulov A. Tanqidchilik ufoqlari. — Toshkent: Adabiyot va san‘at.

siyomodir. Olimning ko'p yillik sermahsul faoliyati adabiy tanqidni shunchaki taqrizchilik darajasidan fundamental nazariy fan darajasiga ko'tarishga xizmat qildi. Uning tadqiqotlarida milliy adabiy an'analar bilan jahon adabiyotshunosligining ilg'or metodologik tamoyillari o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Munaqqidning „Tanqid, tahlil, baholash“ kabi monografiyalari o'zbek tanqidchiligiga aksiologik va semiotik yondashuvlarni olib kirgani bilan g'oyat ahamiyatlidir. Abdug'afur Rasulov asarlari orqali adabiy asarga baho berishda nafaqat matn, balki ijodkor shaxsiyati va davr ruhiyatini yaxlit holda ko'rish tamoyili ustuvorlik kasb etdi. Olimning Abdulla Qahhor ijodiga bag'ishlangan izlanishlari adib merosini yangicha, estetik mezonlar asosida talqin qilishning yuksak namunasiga aylandi. Uning „sinchkov tanqidchi“ sifatidagi mahorati yuzlab maqola va taqrizlarida, ayniqsa, yosh iste'dodlarni kashf etishdagi fidoyiligida yaqqol seziladi. Munaqqid ijodida turkum maqolalar yozish an'anasi adabiy jarayondagi izchillikni va ilmiy mushohada chuqurligini ta'minlashga xizmat qildi. U adabiy tanqidni madhiyabozlikdan xoli etib, unga haqiqiy ilmiy va axloqiy mezonlarni qaytargan zahmatkash olimdir. Abdug'afur Rasulov yaratgan „tanqid maydoni“ bugungi yosh adabiyotshunoslar uchun o'ziga xos mahorat maktabi vazifasini o'tamoqda. Uning ilmiy merosi mustaqillik davri adabiy tafakkurini boyitishda va milliy g'oya asoslarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Olimning metodologik qarashlari hozirgi kunda ham adabiy jarayonni xolis baholashda eng ishonchli manbalardan biri bo'lib qolmoqda. Umumlashtirib aytganda, Abdug'afur Rasulov shaxsi va uning boy merosi o'zbek filologiyasi tarixining ajralmas qismidir. Mazkur tadqiqot natijalari munaqqid qarashlarini bugungi kun adabiy ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qayta anglash imkonini beradi. Olimning ilmiy tamoyillari kelajakda o'zbek adabiy tanqidchiligining yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarilishida poydevor bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Rasulov A. Tanqid, talqin, qiymat. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Rasulov A. Iste'dod va e'tiqod. – Toshkent: Sharq, 2000.
3. Rasulov A. Ardoqli adib. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.
4. Rasulov A. Tanqidchilik ufqlari. — Toshkent: Adabiyot va san'at.
5. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.